

FOLKLOR QO'SHIQCHILIK SAN'ATINI KELAJAK AVLODGA TO'LIQ HOLDA YETKAZILISHIDA SAMARALI IZLANISHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha javhalarda bo'lgani kabi san'at borasida ham xalqimizning noyob durdonalaridan sanalgan folklor qo'shiqchilik san'atini tiklashda, milliy musiqa madaniyatini jahon ozra ko'z-ko'z etishda samarali izlanishlar olib borayotgan "Sardoba" xalq folklor-etnografik ansambli ijodiy mehnat faoliyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Festival, folklor, etnografik, ansambl, UNESCO, alla, o'lan, lapar, aytishuv, raqs, uslub, konsert, dastur, takomillashtirish, urf-odat, udum, donishmandlig, laureat.

ИСКУССТВО ФОЛЬКЛОРНОГО ПЕНИЯ В ПОЛНОЙ МЕРЕ ПЕРЕДАЕТСЯ БУДУЩЕМУ ПОКОЛЕНИЮ ЭФФЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ДОСТАВКИ

Аннотация. В данной статье с первых лет независимости "Сардоба", проводящая эффективные исследования по восстановлению во всех аспектах искусства фольклорного пения, считающегося одним из уникальных шедевров нашего народа, и в представлении миру национальной музыкальной культуры, пойдет речь о творчестве фольклорно-этнографического ансамбля.

Ключевые слова: Фестиваль, фольклор, этнографический, ансамбль, ЮНЕСКО, алла, олан, лапар, речь, танец, стиль, концерт, программа, совершенствование, традиция, мудрость, лауреат.

FOLKLOR BRINGS THE ART OF SINGING TO THE FUTURE GENERATION IN ITS ENTIRETY EFFECTIVE RESEARCH IN DELIVERY

Annotation. In this article, since the first years of independence, "Sardoba", which has been conducting effective research on the restoration of all aspects of the art of folk singing, considered one of the unique masterpieces of our people, and in presenting the national musical culture to the world, will talk about the creativity of the folklore-ethnographic ensemble. **Keywords:** Festival, folklore, ethnographic, ensemble, UNESCO, alla, olan, lapar, speech, dance, style, concert, program, improvement, , tradition, wisdom, laureate.

Keywords: Festival, folklore, ethnographic, ensemble, UNESCO, alla, olan, lapar, speech, dance, style, concert, program, improvement, tradition, wisdom, laureate.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha javhalarda bo'lgani kabi san'at va madaniyat borasida ham noyob durdonalarni tiklashga, milliy musiqa madaniyatini jahon o'zra ko'z-ko'z etishga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda.

Milliy musiqa an'analarini avaylab-asrash, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali, har ikki yilda bir marta o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Festival ilk marotaba 1997-yilning 25 avgust kuni Samarqanddagi Registon yodgorliklar majmuasida o'z faoliyatini namoyish etdi. Bunda dunyoning turli burchaklaridan kelgan atoqli san'atkorlar, yirik musiqashunoslar, taniqli olimlar va jamoat arboblari, musiqa shinavandalari, san'at bayramining guvohi bo'ldilar. Bundan tashqari „Boysun bahori“ Surxandaryo viloyatida, Asrlar sadosi“ Navoiy

viloyatida falklor-etnografik ansambllar o'rtasida bo'lib o'tadigan xalqaro festivallar ham shular jumlasiga kiradi.

Boysun bahori – O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Boysun tumani Padang qishlog'ida an'anaviy tarzda aprel—may oylarida o'tkaziladigan xalqaro ochiq folklor festivalidir. Ushbu festival UNESCO kafilligiga olingan. Folklor san'ati — alla, o'lan, lapar, raqs, terma, marosim singari qo'shiqlar va milliy xalq o'yinlari, tomosha san'ati nominatsiyalari bo'yicha o'tkaziladigan festivalda xorijiy davlatlar vakillari ham ishtirok etishlari mumkin. Ilk bor 2002-yil may oyida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston xalq ijrochilarining ilk ochiq folklor festivali bo'lib o'tgan. 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta tashkillashtiriladigan bo'ldi.

Qoraqalpog'istonda 2021 yilda ilk bor "Bo'zatov FEST" respublika yosh ijodkorlar festivali o'tkazildi. Xalqaro musiqa festivali, har yili o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

"Yoshlar ovozi" festivalida 2021 yilda o'tkazilgan tanlovda 3 ming nafar iqtidorli yoshlar ishtirok



etgan bo'lsa, 2022 yil bo'lib o'tgan tanlovda 238 ming nafar yosh qatnashishi festival talantlar uchun yaratilgan imkoniyat ekanidan darak beradi.

Mustaqillik davrida ta'lim shakli shamoyili qayta ko'rib chiqilishidan tashqari nafaqat uning ayrim

tuzilmalarini qayta muvofiqlashtirishda, balki mazmunan yangilash, shuninshe, to'plangan tajribalarni inobatga olgan tarzda ravnaq toptirishda talaygina yutuqlar qo'lga kiritildi.

Navoiy shahar, Farhod madaniyat saroyida tashkil qilingan, xalqimizga o'zining ijod na'munalari bilan manzur bo'lib kelayotgan va ravnaq topayotgan „Sardoba“ falklor-etnografik

ansambl mehnat
faliyatini; ayrim
tuzilmalarni qayta
muvofiqlashtirish,
mazmunan

yangilash, mustaqillik
davrida yangicha
reformalarni hayotga
tadbiq etish misolida
ko'ra olamiz.. Folklor
san'ati;- alla, o'lan,
lapar, raqs, terma,
marosim singari
qo'shiqlari ansambl



jamoasi reperturidan o'rin olgan. Jamoa faollari tomonidan Navoiy viloyatining turli go'shalarida yashab ijod qilayotgan havaskor san'atkorlarlar ijodidan na'munalar; alla, o'lan, lapar, raqslar tanlanib, o'rganilib, jilolanib yana qayta xalqimizga go'zal holda jamoa tomonidan bayram tadbirlarida, xalqaro anjuman, konsertlarda havola qilinmoqda.

"Sardoba" xalq falklor-etnografik jamoasi 2007-yilda Navoiy kon metalurgiya kombinatiga qarashli „Farhod“ madaniyat saroyi direktori Nikolay Petrovich Sisoyev taklifi bilan tashkil qilindi. Ansamblning badiiy rahbari etib; Alisher Abdumurodov, raqs dastasi rahbari: Hurmatoy Kenjayeva, musiqa rahbarligi esa; Sattorov Yigitalilar zimmasiga yuklatildi. Alisher Abdumurodov taklifi bilan ansambl jamoasiga loyiq; nafaqat professional, el nazariga tushgan kon metalurgiya kombinati tasarrufida bo'lgan korxonalarda ish faoliyatini olib borayotgan, shu kombinatda faoliyat olib borib, hozirda nafaqada bo'lgan, musiqaga layoqli havaskor, maktablardan falklor san'atiga qiziqishi bo'lgan talantli o'quvchilat, Navoiy davlat universitetida tahsil olayotgan

talabalar; qo'shiqchi, raqqosa, suhandonlar ansambl jamoasiga taklif qilindi va ansambl shu asnoda o'z ish faoliyatini boshladi.

Alisher Abdumurodov shu jamoada faoliyat olib borayotgan a'zolaridan Bahriddin Jo'rayev, Rustam Yo'ldoshev, Alisher Rustamov va yana bir necha faol ishtirokchi a'zolari bilan birgalikda viloyatni bir necha tumanlarida faoliyat olib borayotgan folklor dastalarini ish jarayoni va repertuarlarini o'rganib chiqishdi. Navoiy davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa talimi kafedrasida ish faoliyatini olib borayotgan ustozlar; Professor Fayziyev.O.O, s.f.n professori Said Boltazoda Saidiy, dotsent Majidov.Sh.M, o'qituvchi B.G'Qodirovlardan kerakli maslahatlar olib; Jamoani o'z uslubi, ijod yo'nalishini, konsert repertuarlarini yaratish maqsadida juda ko'p izlanishlar olib borib bu vazifani a'lo darajada uddalashdi. Jamoa biror bir boshqa jamoalarga o'xshamas uslubga repertuar va ijod yo'liga ega bo'ldi., „Sardoba“ xalq folklor-etnografik jamoasi konsert dasturidan; sahnalashtirilgan; alla, o'lan, lapar, aytishuvlar, raqslar o'rin oldi va ularga yillar davomida yangicha jilo berilib takomillashtirilib, boyitib borildi. Ansambl jamoasi va uning rahbari Alisher Abdumurodovni san'at sohasida ulkan cho'qqilarni ko'zlab o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari, samarali mehnatlari, izlanuvchanliklari va qiziquvchanliklari sayi harakatlari 2007 yilning o'zidayoq amalda o'z mevasini bera boshladi.

Sardoba „xalq folklor-etnografik jamoasi“ ilk bora 2007 yil Samarqand shahrining 2750 yillik yubiley munosabati bilan o'tqazilgan katta konsertda qatnashdi. O'sha yili Respublika folklor-etnografik jamoalari o'rtasida o'tkazilgan ko'rik tanlovida oliy o'rin sohibi. „Sharq taronalari“, butun jahon festivalida eng yaxshi folklor jamoasi sifatida O'zbekiston madaniyat va sport vazirligi tomonidan „Billur kubok“ sovrindori deb topildi.

2008-yil Navoiy viloyati Sarmish soy dasarida o'tqazilgan „Asrlar sadosi“ butun jahon folklor-etnografik ansambllari o'rtasida o'tqazilgan festivalda oliy o'rin sohibi bo'ldi.

2009-yilda XII chi Veliko Tirnova jahon folklor-etnografik jamoalari o'rtasida o'tkazilgan festival laureati bo'ldi.

2010-yil Koreya demokratik davlatida o'tkazilgan „Hi Seul“ folklor-etnografik jamoalari o'rtasida o'tkazilgan festival laureati bo'ldi.

2011- yilda „Sardoba“ xalq folklor-etnografik jamoasiga O'zbekiston respublikasi

„Eng yaxshi folklor-etnografik ansambl jamoasi“ unvoniga sazovvar bo'ldi.

2012-yilda Navoiy shahrida o'tkazilgan „Umid nihollari“ sport musobaqasi ochilish va yopilish konsert dasturiga qatnashdi.

2022-yilning 7-8 may kunlari, "NKMK jamg'armasi" Davlat muassasasi "Navoiy" Hududiy boshqarmasi "Farhod" madaniyat saroyining "Sardoba" folklor-etnografik ansambli Surxondaryo viloyati Boysun tumanida bo'lib o'tadigan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalida ishtirok etdi. Festival natijalariga ko'ra "Sardoba" ansambli 3-o'rinni va 1500\$ sertifikatni qo'lga kiritdi.

„Sardoba“ xalq folklor-etnografik jamoasi repertuaridan orin olgan O'zbek xalqimizning bizgacha yetib kelgan qadimiy urf odatlari, marosimlar, udumlariga qayta jilo berilib, takomillashtirilib; sahnada qayta yangi ko'rinishda tomoshabinlarga havola qilindi,

Dasturlar asosan bayram konsertlari, xalq sayllari, xalqaro konkurs, festivallarda sahnalarida oz aksini topdi. Urf odatlarimiz; „Soch to'yi“, „Beshik to'yi“, „Lachak bandon“, Turli qushiqlar; „Ohoy bola“, „Mo'ylovim“, „Yor-yor- yoroni“, „Yal-yali“, „Hay layli jonim layli“, „Lopti-lopti deydi“, „Noz qilmang-noz qilmang“, „Palov“, Udumlardan; „Parcha buron“, „Bichar“lar, Buxorcha mahalliy folklor qushiqlari yo'nalishi, Buxoro mavrigilari usullarida, ohanglarida ijro etiladigan qo'shiqlar ansambl repertuarini asosini tashkil qildi.

Hozirda Navoiy kon metalurgiya kombinatiga qarashli „Farhod“ madaniyat saroyida tashkil topgan „Sardoba“ xalq folklor-etnografik jamoasi yanada o'z konsert dasturini boyitish yo'lida, shu madaniyat saroyida faoliyat olib borayotgan raqs jamolari; bir necha orkestr, ansambl jamoalari bilan birgalikada yangi proyektlar ustida ish olib bormoqda. Ansambl jamoasi o'z konsert dasturlarini yangi xalq qo'shiqlari, yangi sahna ko'rinishlari ustida ishlab, yanada boyitib, folklor san'atining qo'shiqchilik yo'nalishini ravnaqiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Biz folklor



qo'shiqchilik san'ati deganda;Falklor musiqasi-(xalq donishmandligi) bu yillar,asrlar davomida xalqimizning xursandchilik kunlarida; bayramlarda,to'ylarda,tadbirlarda uyushtirilgan holda, tadbir mavzusi yo'nalishi asosida o'tqazib kelinayotgan;marosimlarimiz,an'an'alarimiz, urf-odatlarimiz jarayonida ijro qilinadigan kuy va qo'shiqlar jamlanmasidir.

Kelajakda xalqimizning bizgacha etib kelgan durdona falklor qo'shiqchilik san'atini; bizga, kelajak avlodga to'liq holda yetkazilishida

samarali izlanishlar olib borayotgan „Sardoba“ xalq falklor-etnografik ansambli rahbari Alisher Abdumurodov va ansambl jamoasining kelajakdagi ijodiy ishlariga ulkan zafarlar tilab qolamiz. Mamlakatimizda san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir bir talay ishlar amalga oshirilmoqda.Jumladan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022-yildagi PQ-112-son“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish” to'g'risidagi qabul qilingan qarori milliy falklor qo'shiqchilik san'atini rivojiga yuksak omillardan, e'tibordan dalolatdir.Zero,musiqqa san'atining rivoji o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy yetuklik sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.instagram.com/dkfarhaduz>
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ 112-son